

Keywords: higher education system, educational reforms, state policy, human capital, economic development, higher education coverage, higher education institutions, student enrollment, international experience, Japanese education system, German education system, quality of education

KIRISH

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va texnologik rivojlanishni jadallashtirish maqsadida mamlakat hukumati oliy ta’limga qamrovni oshirish, universitetlarga moliyaviy muxtoriyat va akademik mustaqillik berish, qizlar va imkoniyati cheklangan yoshlarga stipendiyalar ajratish kabi keng ko‘lamli chora-tadbirlarni belgiladi. Masalan, World Bank’ning ta’kidlashicha, O‘zbekiston iqtisodiyoti yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga tayanadi va oliy ta’lim tizimiga alohida e’tibor berilishi kerak. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi — ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy salohiyatni kuchaytirish va iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlashdir.

Davlat statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni jadal oshmoqda. 2015/2016-o‘quv yilida ularning soni atigi 69 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2024/2025-o‘quv yilida 222 taga yetdi. Shu davrda talabalarning umumiy soni ham besh barobar oshdi: 2015/2016-o‘quv yilida oliy ta’limga qabul qilinganlar 264,3 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024/2025-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 1 432,8 ming nafarni tashkil qildi. Bunga mos ravishda, 18–23 yoshdagi aholini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yilda atigi 7,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 47,7 foizga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichlar oliy ta’lim sohasiga bo‘lgan talab va qamrovning amalda qanday o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda amal qilayotgan oliy ta’lim islohotlari keng ko‘lamli va tizimli xarakterga ega. Prezident farmonlari va hukumat qarorlariga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv va moliyaviy tuzilmasi qayta ko‘rib chiqilmoqda, xalqaro akkreditatsiya va baholash tizimlari joriy etilmoqda. Bunda Markaziy Osiyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasi ham e’tiborga olinmoqda. Yuqoridagi statistika va siyosiy hujjatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda oliy ta’lim sifati va ko‘lamini oshirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish istiqbollari mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’limning iqtisodiy rivojlanishdagi roli haqida ko‘plab xorijiy olimlar va tashkilotlar fikr bildirgan. Nobel mukofoti sovrindorlari Gary Becker va Theodor Schultz inson kapitali nazariyasini ilgari surib, ta’limga sarmoya kiritish iqtisodiy o‘sishga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatganlar. Ularning g‘oyasiga ko‘ra, qo‘shimcha yillik ta’lim olingani sari mehnat bozoridagi daromadlar o‘rtacha 10 foizga oshadi. Jahon banki blogida ham qayd etilishicha, dunyoda bir yillik qo‘shimcha ta’lim insonning daromad darajasini 10 foizga oshiradi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim darajasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil sanaladi.

Shuningdek, o‘tmishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim darajasi mamlakatlar rivojlanishida bevosita rol o‘ynaydi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim

jamiyat barqarorligiga va tengsizlikning kamayishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Masalan, Bourguignon va Morrison ta'lim millatlar darajasini belgilovchi eng asosiy omil ekanini bayon etgan, Tilak esa ta'lim darajasi oshishi daromadlarning teng taqsimlanishiga ijobiy ta'sir qilganini aniqlagan. Xulosa qilib aytganda, xorijiy adabiyotlarda ham ta'limga kiritilgan sarmoya aholining unumdorligini oshirish, innovatsion loyihalarni rag'batlantirish va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun poydevor ekanligi nazariya va dalillar bilan ko'rsatilgan.

Ushbu maqola doirasida 18–23 yoshdagi aholini qamrab olish ko'rsatkichi, oliy ta'lim muassasalari soni, talabalarning umumiy soni, shuningdek, abituriyentlar soni kabi omillar tahlil qilinadi. Natijalar bo'limida 2016-yildan keyingi davrdagi O'zbekiston tajribasi bilan bir qatorda Yaponiya va Germaniya kabi davlatlar misolida ham oliy ta'limdagi islohotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xulosa qismida ushbu taqqoslash natijalariga tayangan holda O'zbekiston oliy ta'limini rivojlantirish bo'yicha takliflar beriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili, hujjatlarni o'rganish va statistika ma'lumotlarini solishtirish metodlari qo'llandi. Dastlab, oliy ta'limning iqtisodiyotdagi ahamiyati va boshqa mamlakatlar tajribasi haqidagi ilmiy ishlanmalar o'rganildi. Keyin O'zbekiston rasmiy statistikasi, hukumat qarorlari va ekspert maqolalari asosida oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Xalqaro solishtirma tahlil usuli orqali Yaponiya va Germaniyaning oliy ta'lim tizimidagi islohotlari misol qilib olindi. Yakunda ushbu ma'lumotlar asosida xalqaro amaliyotga muvofiq takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar. 2016-yildan keyin O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tarixiy o'zgarishlar boshlandi. Davlat dasturlari va Prezident farmonlariga ko'ra, oliy va kasb-hunar ta'limi boshqaruvi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Xususan, 2018–2019-yillardagi farmonlarda oliy o'quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash va ularni milliy iqtisodiyotga yaqinlashtirish masalalari ko'tarildi.

Bu tashabbuslar asosida oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2015/2016-o'quv yilida respublikada 69 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024/2025-o'quv yiliga kelib ularning soni 222 taga yetdi — bu 2015/2016-yilga nisbatan 153 taga ko'payishni anglatadi. Shu bilan birga, nodavlat (xususiy) oliy ta'lim tashkilotlari soni ham sezilarli o'sdi va 2024/2025-o'quv yilida 99 tani tashkil etdi.

Talabalar soni jihatidan ham yuqori o'sish kuzatildi. Statistika ko'ra, 2024/2025-o'quv yili boshida oliy ta'lim muassasalarida jami 1 432,8 ming nafar talaba tahsil olayotgan bo'lib, bu 2015/2016-o'quv yilidagi 264,3 ming ko'rsatkichiga nisbatan qariyb besh barobar ko'pdir. Quyidagi 1-jadvalda oliy ta'lim tizimining eng muhim ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
Oliy ta'lim tizimining eng muhim ko'rsatkichlari¹

O'quv yili	Oliy ta'lim muassasalari soni	Talabalar soni (ming kishi)	18–23 yosh qamrovi (foizda)	Ariza topshirgan abituriyentlar (ming kishi)
2015/2016	69	264,3	7,2	663,3
2018/2019	98	360,2	13,3	675,0
2020/2021	127	571,5	28,2	948,0
2023/2024	219	1 314,5	45,9	1 018,0
2024/2025	222	1 432,8	47,7	894,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2016-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari soni ham, talabalar soni ham keskin oshgan. Xususan, 2016/2017 va 2024/2025-o'quv yillari orasida muassasalar soni 69 tadan 222 taga yetdi, talabalarning umumiy soni esa 264,3 mingdan 1 432,8 minggacha ko'paydi. Shu davrda oliy ta'lim bilan qamrab olingan yoshlar ulushi ham sezilarli oshdi: 2016-yilda 18–23 yoshdagi aholi o'rtasida oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi atigi 7,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 47,7 foizga yetdi.

O'qishga kirish uchun ariza topshirgan abituriyentlar sonida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatildi. 2020-yilda respublikada oliy ta'limga kirish imtihonlariga 1 484 mingga yaqin abituriyent ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu 2016-yildagi 663 mingga nisbatan yuqori ko'rsatkichdir. Biroq keyingi yillarda ariza topshirganlar soni biroz pasaydi va 2024-yilda 894 mingni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlarning 2018–2020-yillardagi oshishi ta'limga bo'lgan talab kuchayganini, keyinchalik esa ommaviylik bosqichiga yetilganini ko'rsatadi.

Davlat islohotlari natijasida oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini diversifikatsiya qila boshladi. Masalan, xorijiy oliygohlar bilan qo'shma dasturlar joriy etildi, ayrim universitetlar nodavlat sektor doirasida tashkil etildi. Ishga qabul qilish va ish beruvchilar bilan hamkorlik mustahkamlandi: soha korxonalarida oliygohlarda ilmiy laboratoriyalar ochmoqda va amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, Guliston davlat universitetida fermer xo'jaliklari bilan birgalikda eksperimental biologiya laboratoriyasi tashkil etilib, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida tashxis xizmatlari ko'rsatilmogda. Bu kabi loyihalar oliy ta'limning iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'limidagi islohotlar natijadorligini yanada oshirish uchun xalqaro tajribaga murojaat qilish muhim. Quyida Yaponiya va Germaniya oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan asosiy islohotlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Yaponiya oliy ta'lim tizimi so'nggi ikki o'n yillikda jiddiy islohotlarga duch keldi. Bu islohotlarning sabablari orasida aholi demografik o'zgarishlari, global raqobat va bozorlashuv omillari mavjud. Prof. Amano Ikuo tahlillariga ko'ra, Yaponiya universitetlari oxirgi 20 yil davomida tizimli va tashkiliy o'zgarishlarni boshdan

¹ Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida

kechirdi. Xususan, 2004-yilda milliy universitetlar korporativlashuvi amalga oshirildi va ularning boshqaruv tarkibi o'zgartirildi. Bu "yapon modeli" oliy o'quv yurtlariga nisbatan davlatning boshqaruv rolini qisqartirish, universitetlarning o'z nizomlari asosida faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan edi. Shu bilan birga, hamkorlik va raqobatni kuchaytirish, magistratura va doktorantura tizimini isloh qilish asosiy maqsadlardan bo'ldi.

Xalqaro megatrendlar — universitetlarning universal ta'limga o'tishi, bozor printsiplari va globalashuv — Yaponiyada ham oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirdi. Xususan, mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrov 1995-yilda 45,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilgacha 55,1 foizga ko'tarildi. Biroq yoshlar sonining kamayishi natijasida oliy o'quv yurtlari yangi talabalarni jalb etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Islohotlar natijasida Yaponiyada universitetlar mustaqillashdi, moliyaviy muxtoriyat va raqobatga asoslangan platforma shakllandi. Universitetlar jahon reytinglariga kirish, chet ellik talabalarni jalb etish va innovatsion tadqiqotlar hajmini oshirishga intilmoqda. Shu bilan birga, Yaponiya oliy ta'lim tizimida ingliz tilidagi dasturlar soni va ta'lim sifati dolzarb muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli Yaponiya tajribasi O'zbekiston uchun universitetlar boshqaruvida mustaqillik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish borasida muhim o'rnak bo'la oladi.

Germaniya oliy ta'lim tizimi ham so'nggi bir necha o'n yillikda jahon ta'lim bozoridagi o'rnini qayta belgilashga intildi. Xususan, 1999-yilda Bolonya jarayoni doirasida universitetlarda uch bosqichli ta'lim (bakalavriat, magistratura, doktorantura) joriy etildi hamda kredit-modul tizimi qabul qilindi. Bu islohotlar Germaniyaning Yevropa oliy ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan edi.

Bundan tashqari, Germaniyada oliy ta'lim sifatini nazorat qilish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlar joriy etildi. Jumladan, 2005-yilda boshlangan "Excellence Initiative" dasturi yetakchi universitetlarni moliyaviy rag'batlantirish orqali ularni global miqyosda raqobatbardosh qilishni maqsad qilgan. Ushbu dastur doirasida zamonaviy tadqiqot maktablari va ilmiy markazlar tashkil etildi, natijada Germaniya oliy ta'lim muassasalari ilmiy natijalari sezilarli darajada oshdi.

1996-yildan boshlab Germaniya hukumati xalqaro aloqalarga katta e'tibor qaratdi: xalqaro talabalar va tadqiqot loyihalari bo'yicha strategiyalar ishlab chiqildi. Demografik o'sish sust bo'lishiga qaramay, Germaniyada oliy ta'limga talab yuqori bo'lib qolmoqda, chet ellik talabalar oqimi va xususiy ta'lim muassasalari soni oshib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda 2016-yildan keyingi oliy ta'lim islohotlari ta'lim qamrovini kengaytirish va tizim sifatini oshirishga qaratilgan. Natijada oliy ta'lim muassasalari va talabalar soni bir necha barobar ko'paydi, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishi qariyb 50 foizga yetdi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini barqaror ta'minlash uchun hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar mavjud. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, universitetlar mustaqilligini kuchaytirish, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni

moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot doirasida adabiyotlar sharhi va statistik tahlil asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy avtonomiya berish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- ta'lim dasturlarini iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish va amaliy ko'nikmalarni kuchaytirish;
- xalqaro hamkorlik va akademik almashinuvlarni faollashtirish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni moliyaviy rag'batlantirish;
- ta'lim sifatini kafolatlovchi milliy akkreditatsiya tizimini joriy etish.

Mazkur tavsiyalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Becker, G. S. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. Chicago: University of Chicago Press.
2. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. *The American Economic Review*, 51(1), 1–17.
3. World Bank. (2018). World development report 2018: Learning to realize education's promise. Washington, DC: World Bank.
4. World Bank. (2022). Uzbekistan education sector analysis. Washington, DC: World Bank Group.
5. OECD. (2019). Education at a glance 2019: OECD indicators. Paris: OECD Publishing.
6. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2015). The knowledge capital of nations: Education and the economics of growth. Cambridge, MA: MIT Press.
7. Barro, R. J. (2013). Education and economic growth. *Annals of Economics and Finance*, 14(2), 277–304.
8. Bloom, D. E., Canning, D., & Chan, K. (2006). Higher education and economic development in Africa. *World Bank Working Paper*, No. 102.
9. Marginson, S. (2016). Higher education and the common good. Melbourne: Melbourne University Press.
10. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). Trends in global higher education: Tracking an academic revolution. Paris: UNESCO.
11. Amano, I. (2012). Reforms in Japanese higher education: From institutionalization to universalization. *Higher Education*, 63(2), 153–170.
12. OECD. (2020). Education policy outlook: Germany. Paris: OECD Publishing.
13. Federal Ministry of Education and Research (BMBF). (2021). The higher education system in Germany. Berlin: BMBF.
14. Teixeira, P., Jongbloed, B., Dill, D., & Amaral, A. (2004). Markets in higher education: Rhetoric or reality? Dordrecht: Kluwer Academic Publishers.

15. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**